



## THE CHOICE OF TEACHING METHODS

**Gulsanam Kosimova**

*lecturer*

*Fergana State University*

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** pedagogy, education, methodology, innovation, learning efficiency, teaching methods.

**Received:** 20.04.23

**Accepted:** 22.04.23

**Published:** 24.04.23

**Abstract:** in the conditions of modern education, future specialists, along with professional knowledge, skills and abilities, should develop the skills of independent acquisition of knowledge and a creative approach to solving the task. In the formation of these characteristics, the development of students' skills of independent and creative thinking and the activation of educational activities is important. It is important to use active teaching methods aimed at the formation and development of students' skills of searching, searching and independent problem-solving with an independent and creative approach.

The article examines scientifically based considerations about the teaching methodology and its choice.

## TA'LIM METODLARINI TANLASH

**Gulsanam Qosimova**

*o'qituvchi*

*Farg'onan davlat universiteti*

*Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** pedagogika, ta'lif, metodologiya, innovatsiya, ta'lif samasadorligi, ta'lif metodlari.

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lif sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda bilimlarni mustaqil egallash va muammoni mustaqil ravishda hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlari ham shakllanishi kerak. Ushbu xususiyatlarni shakllantirishda ta'lif oluvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv

faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchilarni mustaqil va ijodiy yondoshgan holda muammolarni yechimini izlash, topish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lim metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Maqolada ta'lim metodlari va uni tanlash haqida ilmiy asoslangan fikrlar tadqiq etilgan

## ВЫБОР МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ

**Гулсанам Касимова**

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** педагогика, инновации, методы  
образование, методология, эффективность обучения, обучения.

**Аннотация:** в условиях современного образования у будущих специалистов наряду с профессиональными знаниями, умениями и навыками должны формироваться навыки самостоятельного приобретения знаний и творческого подхода к решению поставленной задачи. В формировании этих характеристик важное значение имеет развитие у обучающихся навыков самостоятельного и творческого мышления и активизация учебной деятельности. Важно использовать активные методы обучения, направленные на формирование и развитие у обучающихся навыков поиска, поиска и самостоятельного принятия решений проблем при самостоятельном и творческом подходе.

В статье исследованы научно обоснованные соображения о методике обучения и ее выборе

### KIRISH

Ilmiy asoslangan zamонавиј педагогик технолоѓијалари ва faol metodlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, fanlarni o'qitishda o'quvchilarni faolligini ta'minlash maqsadida seminarlar, ilmiy –amaliy anjumanlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirishga, o'qitish texnologiyalari va baholash tizimi ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga faol ta'lim metodlaridan keng foydalanishga e'tibor berish, shuningdek o'quv materialini faollashtirish zarur. Bu orqali ularning ta'lim olish imkoniyatlari, mustaqil ishlash qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin. "Hozirgi zamon o'qituvchisining

asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g’oyaviy e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi, bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat o‘qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan predmetlarni chuqrubilishi, uning metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur”[1, 40].

### ASOSIY QISM

Hozirgi pedagogik amaliyotida ta’lim metodlarning 200 dan ortiq turlari mavjudligi e’tirof etiladi. Ushbu ta’lim metodlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta’lim sharoitida talabalarni ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qo‘llashni talab etadi. Shuni e’tiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat ta’lim maqsadiga, balki o‘quv materiali mazmuniga ham bog‘liq bo‘ladi.

“Ta’lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo‘lib, u o‘z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishlariga bog‘liq ravishda ro‘y berayotgan aksariyat o‘zgarishlarga muvofiq o‘zgara boradi. Ana shu doirada innovatsiyalar ta’lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga osliirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi”[2, 25].

Ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish va o‘quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko‘mak beruvchi ta’lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta’lim metodlarni maqsadli yo‘naltirilgan tanlash belgilangan o‘quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta’limning maqsadi – ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikmalarini va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O‘quv faoliyatida ta’lim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta’lim metodlarni birgalikda qo‘llash zarur. Shuning uchun, ta’lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo‘lib aniq o‘quv mashg‘ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Ta’lim metodi – o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muntazam qo‘llaydigan, o‘quvchilarga o‘z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Ta’lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo‘lgan vazifalarii amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi.

Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo‘llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko‘plab ta’lim metodlari hosil bo‘lgan va bu jarayon davom etmoqda.

Muayyan ta’lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat bo‘lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’lim metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo‘li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta yo‘llardan oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo‘lni aytildi. Masalan, savod o‘rgatish yo‘llari: oilada o‘rgatish, mактабда o‘rgatish, maktabgacha ta’lim muassasasida o‘rgatish, o‘qituvchi yordamida o‘rgatish, kitoblar, kompyuter, ko‘rgazma qуollar va boshqalar vositasida o‘rgatish. Shunga o‘xhash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatishda ham yuqoridagiga o‘xhash yo‘llardan foydalanish mumkin. Shu yo‘llardan foydalашб harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo‘llaniladi.

Ta’lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog‘liqdir, ya’ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta’lim jarayonidagi qaramaqarshiliklarni, ta’lim jarayoniningmohiyatini vatamoyillarini to‘g‘ri anglash natijasidir. Ta’lim materiali ta’lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig‘iga bog‘liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bois, ta’lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog‘liq bo‘ladi. Pedagogika fani mакtablar va ta’lim beruvchilarning ilg‘or ish tajribalarini umumlashtiradi, an’anaviy ta’limning ilmiy asoslarini ko‘rsatib beradi, o‘qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijo-diy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Shu sababli ham ta’lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:

1. O‘quv materialini o‘rganish yo‘li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.
2. Ta’lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshanva aniq asoslangan bo‘lishi lozim.
3. Ta’lim metodlarining tizimliligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
4. Ta’lim metodlari oldiga muqarrar sur’atda qo‘yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo‘lishi.
5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o‘rgatish va o‘quv jarayonida ko‘rsatmali qуollardan iloji boricha ko‘proq foydalanish.
6. Ta’lim metodlari oldiga qo‘yiladigan talablardan yana biri - bu bilimlarning asosli va puxta bo‘lishi. Ta’lim metodlari yaxshi natija beradigan bo‘lishi lozim. Ta’lim beruvchining tushuntirish va ta’lim oluvchilarning o‘ziashtrish usuli rejalashtirilgan yoki moijallangan natijani berishi kerak.

Faol metodini tanlashda uning samaradorlik darajasini e’tiborga olish ham ahamiyatga ega. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv materiali og‘zaki bayon etilganda talabalar ma’lumotning 5-10 % ni eslab qoladilar. O‘quv adabiyotlaridan mustaqil o‘qish ma’lumotning 10-15 % ni, ko‘rgazmali materiallaresa ma’lumotlarning 20-25 % ni o‘zlashtirishga imkon beradi. Amaliy metodlar eng samarali metod hisoblanib, talabalar ongida ma’lumotning 75 % i saqlanib

qoladi. Lekin, o'quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 % bilim o'zlashtiriladi va ko'nikma shakllanadi. Demak, talabalarni mustaqil o'rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ta'sirlariga yo'naltirilgan faol metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

O'qitish jarayonida guruhidagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega. Agar guruhda talabalar ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni jadallashtirish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, faol metodlardan foydalanish unga yaxshi natija bermaslik mumkin. Talabalarning har biri bilan ishslash uchun vaqt yetishmaydi.

Faol metodlarning ba'zilari talabalarni faollashtirishga qancha ko'p vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlarini bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. O'quv mashg'ulotda vaqi shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, qo'llashda ko'p vaqt talab qiladigan faol metoddan foydalanishi imkonini bermaydi. Ba'zi faol metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo'lsak, u holda didaktik ta'minotni amalga oshirishimiz kerak.

Ta'lim oluvchilarning soni. O'quv guruhidagi ta'lim oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni jadal sura'tda olib borish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, agar siz faol metodlardan o'zini oqlamagan darajada ko'p foydalansangiz, ularning har biriga yetarli e'tibor berish uchun vaqtingiz yetishi amri mahol. Katta guruhlar uchun o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari ko'proq mos keladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlari. O'qitish metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'qv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini. Talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va uni e'tiborga olish muhimdir. O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta'lim metodini tanlayotib, biz albatta, talabalarning ish qobiliyatini hisobga olamiz. Talabalarning bir xatalik ish qobiliyatini o'sish sur'atini aks ettiruvchi jadvalni keltiramiz.

Ta'limning davomiyligi. Dasturning yoki o'quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, metod tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Ularning ba'zilari talabalarni tayyorlashga qancha ko'p vaqt talab qilsa, bu faoliyatni bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta'lim muddati shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, ko'p vaqt talab qiladigan metodni siz o'ylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermaydi, bu holda bu metodlarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llashingiz mumkin.

Vaqt – u yoki bu metodni amalga oshirishga ketgan mehnatingiz nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Ba'zi metodlar sizdan boshqalariga nisbatan sizdan ko'proq tayyorgarlikni talab qiladi. SHuning uchun bunday metodlarni qo'llashni rejalashtirayotib, siz faoliyatni tashkil

qilishning ushbu metodini amalga oshirishni tayyorlashga vaqt va kuch yetarlimi, deb o‘zingizga savol berishingiz kerak.

O‘quv-moddiy sharoitlari. Ba’zi metodlarni qo’llashda alohida sharoitlar talab qilanmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona. Agar siz, maxsus o‘quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo‘lsangiz, ularning naqdligini ta’minlashingiz kerak.

## **XULOSA**

Faol ta’lim metodlarini tanlashda ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish imkoniyatlarini, ya’ni ularning yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda, jamoadagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xosligini ham inobatga olish muhim. O‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta’lim metodini tanlayotib, biz, albatta, talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini hisobga olishimiz lozim. Fanga tegishli mavzularining o‘qitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga ta’sir ko‘rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. R.Mavlonova, O.To’rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik. Toshkent, 2018.
2. Omonov H.T. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent, 2009.
3. Ziyomuxammadov B. Pedagogika. O ‘quv qo ‘llanma. Toshkent, 2006.
4. Каримова, Г. Й. (2021). MORALITY AS AN IDEOLOGICAL METHOD OF FIGHTING SPIRITUAL THREATS. *Экономика и социум*, (6-1), 707-710.
5. Pirmatovich, R. R., & Yusupovich, I. V. (2022). Comparative Functional Analysis of Synonyms in Theenglish. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(1), 116-118.
6. Gulnoza, K., Gulzodabegim, K., & Mokhinur, Z. (2022). THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF THE SCIENCE OF SOCIAL ANTHROPOLOGY. *Research Focus*, 1(3), 88-93.
7. Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЮКСАЛИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. *Research Focus*, 1(4), 351-354.
8. Каримова, Г. (2022). МАҶНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 612-615.
9. Алимжонова, М. (2022). ФУНКЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 124-129.
10. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. *Research Focus*, 1(4), 267-272.

11. Alimjonova, M. (2022). THE NECESSITY OF DEVELOPING CULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE OF STUDENTS IN THE GLOBALIZATION OF EDUCATION. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 899-894.
12. Ibragimov, V. (2022). METHODOLOGY OF STUDYING FOREIGN LANGUAGE LESSONS BY THE METHOD OF EXTRACURRICULAR PROJECT WORK ADVANTAGES. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 60-65.
13. Алимжонова, М. (2022). Таълимнинг Глобаллашуви Шароитида Талабаларда Маданиятлараро Мулоқот Компетентлигини Ривожлантириш Зарурати. *Science and innovation*, 1(B3), 254-263.
14. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 707-710.
15. Алимжонова, М. (2022). Глобаллашувнинг Маданиятлараро Мулоқотга Таъсири Ва Уни Тадқиқ Этишнинг Илмий Педагогик Асослари. *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, 3(3), 323-328.
16. Mamasoliyev, R. (2020). Modern Innovative Directions Of Pedagogical Education Development. *Теория и практика современной науки*, (6), 16-18.
17. Мамасолиев, Р. А. (2022, January). Немис Ва Ўзбек Тилларида “Муаллим” Концептини Ифодаловчи Воситалар Ҳақида Қисқача Тўхталиш. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
18. Ибрагимова, З. (2022). ПОЛИСЕМАНТИК ЛЕКСЕМАЛАР. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 616-619.
19. Kosimova, G. (2020, June). THE POWER OF THE TRUE WORD. In *Archive of Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 27-29).
20. Kasimova, G. (2022). TEACHING METHODS FOR TEACHING ENGLISH AND IMPLEMENTING THE KNOWLEDGE OF CRITICAL THINKING OF STUDENTS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 27-33.
21. Qosimova, G., & Jorayev, H. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 69.
22. Салиева, Н., & Салиев, У. (2023). Сущность и содержание педагогической деонтологии. *Общество и инновации*, 4(1), 110-112.
23. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).